

MAQOL VA MATALLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Raxmonberdiyeva Saida Abdulmuxamat qizi

NamDTU katta o'qituvchisi

rahmonberdiyevasaida1991@gmail.com

tel. 998971771991

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqol va matallarning o'ziga xos xususiyatlari hamda ularga olimlar tomonidan berilgan ta'riflar keltirilgan. Shuningdek, maqol va matalga xos belgilar jadval shaklida berilgan.

Key words: maqol, matal, tilshunoslik, paremiya, ibora, stilistika

Tilshunoslik fanining eng muhim bo'limlaridan biri bu stilistika hisoblanadi. “Stilistika” so'zi lotincha stylos (uchi o'tkir qilingan tayoqcha) so'zidan yasalgan. Nutq stillari va stilistik vositalar haqidagi fan “stilistika” bu so'z fransuzcha “stylistique” so'zidan olingan. Demak, stilistika filologiyada adabiyotshunoslik va tilshunoslik o'rtasidagi oraliq fan bo'lib, u fikrni maqsadni har bir sohaning o'z talablariga ko'ra til vositalari bilan aniq, ravon, ixcham va mukammal ifodalab berish san'atini o'rgatadi.

Barchaga ma'lumki, har bir til stilistikasida maqol va matal tushunchalariga turlicha ta'riflar berilgan. Maqol va matallar tilning emotsional obrazli manbalari hisoblanadi. Stilistika tilshunoslikning ajralmas qismi bo'lib, u badiiy nutqning ifodalanish uslublari, ularning ta'sirchanligi hamda inson nutqini o'rganadigan fandır.

Til nafaqat muloqot vositasi, balki xabar almashish uchun belgilar sistemasi bo'lib, milliy qadryatimiz, urf-odatlarimiz, madaniyat ma'nosidagi tushunchalarni ham ifodalaydi. Milliy til uchun eng muqaddas narsa unda millatning ruhi va o'ziga xosligi ham qaytarilmas darajada namoyon bo'ladi. Bunday xususiyat, ayniqsa, madaniy-axloqiy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan milliy qadriyatlarda ko'proq o'z aksini topadi. Milliy qadriyatlar tilning milliy-madaniy semantikasini tashkil etadi. Milliy-madaniy semantika til qurilishining barcha qatlamida kuzatiladi. Xususan, tilning harakatdagi birliklari (so'zlar, frazeologik birliklar, paremiyalar kabilar)da milliy-madaniy semantikaning xususiyatlari juda ham aniq namoyon bo'ladi.

Chunonchi, paremiyalarda insonning o'zi yashagan jamiyatga, turmush tarziga munosabati, ruhiy holati, tuyg'ulari, ijobiy yoki salbiy fazilatlari, etik-estetik va falsafiy qarashlari, jamiyat qonuniyatlari hamda hayotiy sinovlar asosida mujassamlangan

bo'ladi. Bilamizki, paremlar ingliz tilida (proverbs. idiom, saying, harrate, aphoris, phraseologyzm) deb nomlanadi. Ammo bu termin o'zbek tilida juda ko'p nomlar bilan atalib kelinadi. Masalan: maqol, idiomalar, masal, naql, hikmat yoki hikmatli so'zlar, donishmandlar so'zi yoki donolar so'zi, quyma iboralar yoki xalq iborasi (hikmatlari), qanotli so'zlar, xalq aforizmlari, frazeologizmlar shular jumlasidandir. Ba'zi ishlarda frazeologik iboralarni maqol va matallardan ajratib, ularning o'ziga xos xususiyatlari borligi, bir-biridan farqlanishi qayd etilgan.

Barchaga ma'lumki, har bir til paremiologiyasini o'rganuvchi sohada maqol va matallarsiz tasavvur etish mushkul. Tilshunoslikda maqol va matal tushunchalariga turlicha ta'riflar berilgan. Maqol va matal tilning emotsional obrazli manbalari hisoblanadi. Ya'ni maqolllar xalqning pand – nasixati, ma'naviy, axloqiy xulosasi, xalq milliy ruhining aksidir. Maqol juda chuqur ijtimoiy mazmunga ega. Shuning uchun ba'zi bir maqollar butun bir asarning mazmunini yoritib turishi mumkin.

Maqol-xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'zdir. Maqol o'zbek tilida maqol, tojik tilida zarbulmasal, rus tilida poslovitsa, ingliz tilida proverb, arablarda naql, turklarda ata so'zi atamasi bilan yuritiladi. “Maqol” so'zi asli arabcha (ma&al -) مثل bo'lib, uning turkcha ekvivalenti “ota so'zi” deyiladi¹ Hozirda ushbu atama zamonaviy turk tilida “maqol” so'zi o'rnida qo'llanadi. “Maqol”ni qadimgi turklar ögüt, qumaru söz” degan². so'zlar bilan atagan.

Maqollarda so'z qimmatini alohida yorqin ifodalanadi. Chunki maqollardagi so'zlarni boshqasi bilan almashtirish, biron so'z qo'shish mumkin emas. Ular milliy til tarkibida qoliplashgan holda namoyon bo'ladi³. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodida bor bo'lib, hajm, shakl, yaratilishi maqsadiga ko'ra mushtarak hisoblanadi. Hatto nomlanishida ham yaqinlik aniq seziladi.

Maqol atamasi umumiy mazmun jihatdan “so'z” tushunchasi bilan bog'lanadi. Dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodida maqollarchalik shaklan va mazmunan o'zaro yaqin janrni uchratish qiyin. Maqollar ahillik, baxt, omad va baxtsizlik, vatan va

¹ Ismatullayeva, N. Phraseology with zoonymic components of "dragon" and "tiger" in chinese and korean languages. In Oriental Conferences 2021, – P 183-189)

² Sodiqov Q. Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan etno-lingvistik jarayonlar (Ethno-linguistic processes in Central Asia in the early Middle Ages). –Toshkent; Akademnashr. 2018. – B 48-49

³ Madayev O, Sobitova T Xalq og'zaki poetik ijodi. –Toshkent: «Sharq», 2010. — 208 b.

vatanparvarlik, go‘zallik va xunuklik, donolik va nodonlik, do‘stlik va dushmanlik, mardlik va nomardlik, mehroqibat, odob va odobsizlik, or-nomus, sabr-qanoat, to‘g‘rilik va egrilik, umid va umidsizlik, faqirlik va boylik, yaxshilik va yomonlik kabi fazilatlarini ifodalab keladi. Maqollar xalqning o‘ziga xos milliy qadriyatlarini, kishilarning turmush tarzi va undagi urf-odatlarini, qolaversa, ushbu tillarga xos turli xil naqlarning mavjudligi asosida paydo bo‘ladi.

G‘.Salomovning ta’kidlashicha, “Maqol – xalq aql-idrokning mahsuli, uning xukmi, ko‘p asrlik tajribalari majmui, turmushdagi turli voqea-xodisalarga munosabatining ifodasidir. Maqol kundalik hayotda, kishilarning bir-birlari bilan muomilada bo‘lishi jarayonida tug‘iladi. Xalq maqoli xalqning mulkidir. Maqol qayg‘usi – xalq qayg‘usi, maqol g‘azabi – g‘azabi, maqol kulgisi – xalq kulgisi va maqol kinoyasi – xalq kinoyasi demakdir. Maqol ishlatmagan bironta xalq, maqol ijod qilmagan bironta til yo‘q. “Dunyoda tilsiz xalq bo‘lmagani kabi, maqolsiz til ham yo‘q”,- deb ko‘rsatadi tatar yozuvchisi Noqiy Esanbat⁴”.

M.Murodovanning “Folklor va etnografiya” asarida ta’kidlanishicha: “Til, falsafa va badiiy ijodning o‘ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan bir janridir. Maqol xalqning ko‘p asrlar mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to‘plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham, chuqur mazmunga ega bo‘lgan og‘zaki ijod janrlaridan biridir.

Maqol atamasi arabcha - «qavlun» - gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan, u aytib yuriladigan ibora, ifodalardir. Maqol har bir xalqning og‘zaki ijodida uchraydigan janrdir. Doston, ertak, afsona va rivoyatlar voqelikni hikoya tarzida aks ettirsa, maqollar xalqning dono tajribasini xulosalar, hukmlar orqali ifodalaydi. Hajman ixcham bo‘lgan maqolda bayoni dostonlarga teng bo‘lgan voqealar mujassamlangan. Maqolda fikr aniq, tugal xulosa, lo‘nda hukm tarzida ifodalanadi⁵”.

Yuqorida ta’kidlanganidek, o‘zbek tilidagi maqollar xalq falsafiy va badiiy ijodining o‘ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan ixcham shaklli, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan alohida janrdir. Har biri til ko‘rkini, nutq nafosatini, aql- farosat va tafakkur mantig‘ini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan

⁴Саломов Г. Тил ва таржима (бadiiy таржиманинг умумфилологик ва баъзи лингвистик масалалари). Тошкент, 1966. – Б. 256.

⁵ Муродова М. Фольклор ва этнография 2006. <https://library.samdu.uz/files/>

bunday badiiyat qatralari o‘zbek xalqining ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir⁶. Olimlarning keltirgan fikrlariga ko‘ra maqol xalq og‘zaki janrlaridan biri bo‘lib, xalqning turmush tarzini va ko‘p asrlik tajribalarini keng talqin etadigan, o‘ziga xos ma’noga ega bo‘lgan teran fikrlar majmui degan xulosaga keldik.

Matal – [arabcha مثل] so‘zi, birinchi navbatda, tugal ma’no ifodalamaydigan obrazli ibora, hikmatli so‘z (mas., „qizil qor yog‘ganda“, „tuyaning dumi yerga tekkanda“). ikkinchidan, qissa, masal ma’nolarini bildiradi⁷.

Matal – muayyan hayotiy hodisani aniq va to‘g‘ri belgilab beradigan obrazli ifoda bo‘lib, o‘xshatish, taqqoslash, kinoya, qochiriq so‘z kabi badiiy vositalardan foydalaniladi. Matal bir yoki bir nechta jumladan tuziladi, ular orasida qofiyalanish hamisha ham saqlanib qolmaydi. Matal xalq maqoli bilan ba’zi o‘xshashliklari bo‘lsada, lekin turli xil jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Matallarning paydo bo‘lishi nutqda turg‘un obrazli iboralarining yuzaga kelish bilan bog‘liq. Matallar ko‘p ma’noli bo‘lganligi sababli, nutqiy frazeologik iboralarga qarama – qarshi holda jumladagi o‘xshatish va qiyoslashni kuchaytiradi. Matallar har qanday holatda ham grammatik jihatdan gapning bir bo‘lagi bo‘la oladi.

Matal – ko‘chma ma’noda ishlatiluvchi xalq majoziy iboralarining bir turidir. Matalda majoziy iboraning o‘z asl ma’nosi bilan ko‘chirilgan ma’no o‘rtasida yaqin munosabat, mantiqiy bog‘lanish bo‘lishi shart. Biz mazkur ishimizda asosan bino-inshootlar qurilishi leksemalarning paremiologik tushunchalarini tadqiq etish va ularning strukturasini belgilash uchun ingliz va o‘zbek tillaridagi maqol va matallar lug‘atlaridan foydalandik. Masalan o‘rinsiz aytilgan gap ma’nosi *“tomdan tarasha tushganday”*, har bir ishni o‘z vaqtida bajarilish afzalligi *“temirni qizig‘ida bos”* kabi qurilish sohasi leksik birliklar ifodalangan jumalarda matallar o‘z aksini topgan.

“Matal – tilda lug‘at bilan yonma-yon turuvchi so‘z oborotlari, bo‘linmas so‘z birikmasidir. Maqol so‘zning lug‘aviy ma’nosi o‘ta donolik, aql-zakovat bilan oqilona aytilgan, mixlab qo‘yiladigan, o‘zgartirib bo‘lmaydigan chuqur ma’noli gap demakdir. Matal – voqea – hodisa, predmet haqida obrazli ifoda bo‘lib fikr va muhokamaning tugal natijasini emas, balki ularning elementlarini ko‘ramiz. Bu elementlar obrazli

⁶ Мирзаев Т.М. Сўздан сўзнинг фарқи бор // Ўзбек халқ мақоллари. <https://kh.davron.uz/kutubxona/uzbek/ozbekxalq-maqollari.html>

⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 — 555 b.

ifodalar bo'lib, ular ko'chma ma'noda ishlatiladi. Matal bitta jumladan iborat bo'lib, maqoldagi singari qofiyasi yo'q⁸.

Jumladan, O.Madayev fikriga ko'ra, "maqol va matallar bir-biriga shakl va mazmun jihatdan yaqin, ammo maqollar nisbatan mustaqil janr bo'lib, matalda bu mustaqillik ko'zga tashlanmaydi"⁹.

Professor B.Jo'rayeva "O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari" monografiyasidan maqol va matal orasidagi farqlarni yoritgan tilshunoslar fikrlarini tahlil qilar ekan, ularning aksarida matalni ibora deb yanglish tushunish borligiga izoh beradi: "Matalga xos bo'lgan birliklarni bir chetga yig'ishtirib qo'yib, frazeologik birliklarning matal termini ostida o'rganilishi olimlar tomonidan yo'l qo'yilgan chalkashlik natijasidir, xolos"¹⁰.

Z.Narmuratov "Ingliz va o'zbek tillarida "ta'lim", "ilm" konseptlariga oid paremalarning lingvomadaniy tadqiqi" dissertatsiyasida B.Jo'rayevaning fikrlariga tayangan holda o'zining quyidagi xulosalarini keltiradi: 1) maqol har doim aniq va tugal fikr anglatadi, matalga boshqa bir gap qo'shilishi bilan fikr to'liq ifodalanadi; 2) maqollar o'z va ko'chma ma'no ifodalash imkoniyatiga ega matallar lokal qo'llanilish chegarasiga ega; 3) matal nutqda ko'rsatish vositasi bo'lsa, maqol dalillash, isbotlash vositasidir¹¹.

Shu kabi O.Poyonova ham paremiologik birliklarga haligacha muqim bir chegara qo'yilmaganini ta'kidlaydi. Shuningdek, muammoga doir 20 ga yaqin olimlarning bir-biridan farqli qarashlarini keltirib o'tadi hamda maqollar va matallarda ifoda plani bir xil tabiatga ega emas, degan fikrni qayd etadi. O.Poyonova maqol va matalni farqlar ekan, quyidagi qarashni yoqlaydi:

- maqollar doimo gap strukturasi (tuzilishiga)ga ega;
- matallar esa ham gap, ham so'z birikmasi shaklida bo'lishi mumkin¹².

⁸Йулдошев Б.Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда таракқиёти. -Самарқанд, 2007. - 108 б.

⁹ Madayev O, Sobitova T Xalq og'zaki poetik ijodi. –Toshkent: «Sharq», 2010. — 208 b.

¹⁰Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари. -Тошкент, 2019. – Б.11.

¹¹Нармуратов З. Инглиз ва ўзбек тилларида “таълим”, “илм”, концептларига оид паремаларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фанлари фалсафа д-ри...дисс. – Термиз, 2021.– Б. 31.

¹²Поёнова О. Инглиз ва ўзбек тилларида “Оила” бош лексемали мақоллар семантикаси ва структураси. Филол. фанлари фалсафа д-ри...дисс. – Самарқанд, 2021. – Б. 30-33.

Agar maqol – turmushda sinalgan, ma’lum ezgu, tugal, umumiy ma’no anglatuvchi ixcham bir shakldagi xalq hikmati bo’lsa, matal narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi, tilda keng ishlatiladigan ibora va nutq oborotlardir. Matal so’zlovchining o’z nutqi mazmuniga munosabatini ifodalaydi. Matal kishining xotirasida osonlik bilan saqlanib qoladi¹³. Maqol va matalning bir - bировiga yaqinligini rad qilib bo’lmaydi. Ular struktura va semantika jihatdan aniq chegaralanmagan. Shunga qaramasdan, maqol va matallarga xos ba’zi bir xususiyatlarni ko’rsatish mumkin. Maqollarning struktura va semantik nuqtai nazaridan yaqqol ko’zga tashlanib turganligi sababli ularni boshqa frazeologik birikmalardan farqlash qiyin emas.

Biz quyidagi jadval orqali maqol va matallarga xos belgilarni ayrimlarini keltirib o’tdik.

2.1- jadval

Maqollarga xos belgilar	Matallarga xos belgilar
Maqollar tugal fikrni bevosita ifodalaydi.	Matal ko’chma ma’noli sodda jumla va undan xulosa bo’lmaydi.
Maqollarda so’zlar bir-biriga qo’iyalanib keladi.	Matal fikrni biror vosita orqali ifodalaydi.
Maqollarda qarama-qarshi ma’noli so’zlar ishlatiladi.	Matal maqol bilan bog’liq bo’lishiga yoki bo’lmasligiga qaramasdan, faqat kommunikativ frazeologik birikmaga nisbatan ishlatiladi.
Maqollar majoziy ma’noda ishlatiladi.	Ko’p matallar tarkibidagi olmoshlarni o’zgartirishi mumkin, maqollarga esa bunday o’zgarishlar xos emasdir.
Maqollarning strukturasiga ko’pincha qo’shma gap strukturasiga o’xshaydi.	Matal ixcham, bir komponentli kompozitsiyaga ega.
Maqollar kontekstda mustaqil gap yoki qo’shma gapning bir qismi sifatida keladi.	Matal asosida chiroyli, obrazli, ammo tugal bo’lmagan ifoda yotadi.


¹³ Саломов Ғ. Тил ва таржима (бадий таржиманинг умумфилологик ва баъзи лингвистик масалалари). – Тошкент, 1966. – Б. 258.

Biz tadqiqotimizda frazeologiyani keng ma’noda tushungan holda maqol va matallarni, aforizmlarni umumlashgan paremiologik birliklarni frazeologizmlar tarkibiga kiritib o’rganamiz. Qator yillar davomida tilshunoslikning ushbu bo’limi lingvomadaniy masalalarni o’rganishga bag’ishlangan ishlarda ta’kidlangan ediki, maqol va matallar tilning milliy o’ziga xos birliklari hisoblanib, xalqning madaniy imkoniyatlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Ismatullayeva, N. Phraseology with zoonymic components of "dragon" and "tiger" in chinese and korean languages. In Oriental Conferences 2021, – P 183-189)
2. U Normuhammad. Biografik Asarlar Tarixi Yoxud Moziyga Bir Nazar. Miasto Przyszłości 55, 279-280, 2024
3. Sodiqov Q. Ilk o’rta asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan etno-lingvistik jarayonlar (Ethno-linguistic processes in Central Asia in the early Middle Ages). – Toshkent; Akademnashr. 2018. – B 48-49
4. OG Ulashevna. Classification of uzbek kinship terms. International scientific and practical conference proceeding. Exploring ..., 2024
5. Madayev O, Sobitova T Xalq og’zaki poetik ijodi. –Toshkent: «Sharq», 2010. — 208 b.
6. Саломов Ғ. Тил ва таржима (бадий таржиманинг умумфилологик ва баъзи лингвистик масалалари). Тошкент, 1966. – Б. 256.
7. ZBM Gulnora Ulashevna Ochilova. The importance of teaching and learning vocabulary. International Scientific Research Journal (WoS), 1029-1033, 2022
8. Муродова М. Фольклор ва этнография 2006. <https://library.samdu.uz/files/>
9. N Ubaydullayev. Memuar asar tahlili. International conference on interdisciplinary science 1 (10), 268-273, 2024
10. Мирзаев Т.М. Сўздан сўзнинг фарқи бор // Ўзбек халқ мақоллари. <https://kh.davron.uz/kutubxona/uzbek/ozbekxalq-maqollari.html>
11. GU Ochilova. Teaching vocabulary to English for specific purposes (esp) students using communicative language teaching. Colloquium-journal, 57-58, 2021
12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 — 555 b.
13. U Normuhammad. A look at the history of biographical works or moses. International Journal of Pedagogics 4 (12), 232-234, 2024.
14. Dadaboyev, H., Hamidov, Z., & Xolmanova, Z. (2007). O ‘zbek adabiy tili leksikasi tarixi. Toshkent: Fan, 97-103.

15. Saodat, I., & Ma'suda, E. (2023). Bilingvizm turlari va ikkinchi til leksik bazasi. In international scientific conferences with higher educational institutions (Vol. 1, No. 14.04, pp. 185-188).
16. Bakhronova, D., Alavutdinova, N., Israilova, S., & Vilchis, V. V. Color Lexemes in Context: Cognitive and Cultural Explorations.
17. Saodat, I. Ko 'k' leksemasining etimologik tavsifi. O 'zbekiston, 75.
18. Israilova, S. (2022). "Ko 'k' leksemasi semantikasini yoritishda tezaurus modelidan foydalanish. Computer linguistics: problems, solutions, prospects, 1(1).



**Research Science and
Innovation House**